

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исломиiddинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini narx tebranishlari asosida ekonometrik tahlil qilish

Kenjayev Toshbolta Aminovich

Повышение эффективности сельскохозяйственного производства эконометрический анализ, основанный на колебаниях цен

Кенжаев Тошболта Аминович

Improving the efficiency of agricultural production econometric analysis based on price fluctuations

Kenjaev Toshbolta Aminovich

Received: May 1, 2025 Revised: May 6, 2025 ■ Accepted: May 9, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlarning iqtisodiyotni boshqarish, ishlab chiqarishni tartibga solishdagi ahamiyatining iqtisodiy tahlili keltirilgan, shuningdek, Surxondaryo viloyatida ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi o'zgarishlarni narx tebranishlari asosida ekonometrik tahlil qilingan.
- **Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, baho, narx, standart ko'rsatkichlar, variatsion kenglik, standart chetlanish, mavsumiy tebranish.
- **Abstract:** This article presents an economic analysis of the importance of prices in managing the economy and regulating production in a market economy, as well as an econometric analysis of changes in the production of certain agricultural products in the Surkhondaryo region based on price fluctuations.
- **Keywords:** agriculture, price, price, standard indicators, variation width, standard deviation, seasonal fluctuation.
- **Аннотация:** В статье представлен экономический анализ значения цен в управлении экономикой и регулировании производства в условиях рыночной экономики, а также дан эконометрический анализ изменения производства некоторых видов сельскохозяйственной продукции в Сурхандарьинской области на основе колебаний цен.
- **Ключевые слова:** сельское хозяйство, оценка, цена, стандартные показатели, ширина вариации, стандартное отклонение, сезонные колебания.

KIRISH

Jahonda qishloq xo'jaligi barqaror rivojini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanishning maqbul nisbatlarini aniqlash, mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqaruvni tashkil qilishda ekonometrik usullardan foydalanigan holda optimal yechimlarga ega bo'lish, qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishning istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish asosida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga doir ilmiy tadqiqot ishlariga alohida ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi farmonlarida yangi O'zbekistonni barpo etishda qishloq xo'jaligiga boshqaruvning zamonaviy usullari, mahsulot ishlab chiqarish bosqichlariga yangi texnologiyalarni joriy qilgan holda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq aholisini turmush farovonligini oshirish masalalariga alohida e'tibor berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligi har bir mamlakatning asosiy tayanch tarmog'i hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi barcha mamlakatlarda ham aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab, birlamchi ehtiyojlarini qondiradi. Shu sababli tarmoqni rivojlantirish borasida dunyo miqyosida ko'pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirishning matematik-statistik modellashtirish uslubiyoti, agrar sohaning iqtisodiy tahlili va ekonometrik modellashtirish hamda optimallashtirish masalalari xorijiy olimlardan M.Treysi, S.Sanches, R.M.Salou, E.Krae, G.B. Kleyner, S.A. Smolyak, N.Yu. Vaynshteyn, E.Xedi, D.Dillon, T. Littl va boshqalarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan.

Ekonometrik olim Guan Zhengfeining fikriga ko'ra "qishloq xo'jaligi iqtisodiy tarmoq va albatta, uning rivoji ekonometrik modellashtirish bilan chambarchas bog'liqdir" [1].

MDHga a'zo mamlakatlar olimlaridan Kravchenko R.G., Kashtaeva S.V., Tsvil M.M., Shumilina V.E., Sinelnikov V.M., Korsun N.F., Markov A.S., Podashevskaya E.I., Ereshko F.I., Medennikov V.I., Kulba V.V., Nosonov A.M., Ivanova I.A., Savkin V.I., Nam M.A., Baydakov A.A., Muratova L.G., Salnikov S.G., Gorbachev M.I. V.S.Vajenina, N.F.Korsun, Ye.A.Paxomova, D.A.Pisareva asarlarida qishloq xo'jaligida iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirish, ekonometrik tahlil va modellashtirish, iqtisodiy tavakkalchiliklarni prognozlash kabi masalalar hamda ularning yechimi yoritib berilgan.

S.V.Kashtayeva, "Iqtisodiy-matematik usullar va modellarni qo'llash rejalashtirishning sifatini sezilarli darajada oshirish hamda ishlab chiqarishda qo'shimcha resurslarni jalb etmasdan qo'shimcha samaradorlikka erishish imkonini beradi" – deb ta'kidlab o'tgan [2].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan S.S.G'ulamov, T.Sh. Shodiyev, Yo.A.Abdullayev, N.M.Maxmudov, B.B.Berkinov, B.A.Begalov, T.D.Doschanov, B.R.Ruzmetov, O.Q.Xatamov, I.S.Abdullayev, Nigmatjanov U., H.S.Muxitdinov va boshqalar ilmiy izlanishlarida ekonometrik modellashtirish, qishloq xo'jaligida mahsulot etishtirish va iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish, mavsumiy tebranishlarni prognozlash, xo'jaliklar rivojlanish tendentsiya va istiqbollarni ekonometrik bashoratlashning nazariy-uslubiy hamda ilmiy-amaliy muammolari tadqiq etilgan.

Iqtisodchi olim O.A.Saydaxmedovning qayd etishiga ko'ra, "ishlab chiqarish muhitida boshqarish faoliyatining asosiy maqsadi-bu, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yuqori foyda olishdir" [3].

Ammo yuqoridagi tadqiqotlarda hududda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini zamonaviy ekonometrik modellar yordamida prognoz qilish yetarli darajada o'rganilmagan. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda hududda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi istiqbolini prognozlash masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish jarayonlari rivojlantirishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarning amalga oshirilgan tahlillari natijalaridan ma'lumki, sohadagi o'zgarishlarning mavsum va iqlim bilan yuqori darajada bog'liq bo'lib, mahsulotlar yetishtirishdagi mavsumiy tebranishlar, talab va taklif, shuningdek narxlarning yuqori mavsumiy tebranishlarini vujudga keltiradi.

Tabiiyki, mavsumiy tebranishlarni vujudga kelishi mahsulot yetishtirish jarayonidagi sub'yektlar faoliyatida o'z aksini topadi va tavakkalchilik darajasini oshiradi. Mavsumiy tebranishlar darajasi qanchalik katta bo'lsa, mahsulot yetishtirish bo'yicha qaror qabul qilish jarayoni bilan bog'liq vaziyat ham shunchalik beqaror bo'ladi. Natijada mahsulot yetishtiruvchilar uchun tavakkalchilik darajasi ham oshib boradi.

Narxlar yordamida ko'plab muammolar hal qilinadi, bu shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida ularning iqtisodiyotni boshqarish, ishlab chiqarishni tartibga solishdagi ahamiyati - muomalada bo'lish, ayirboshlash, taqsimlash, iste'mol qilish va to'plash mexanizmi doimiy ravishda oshib boradi. Narxning iqtisodiy mohiyati ob'yektiv iqtisodiy qonunlarning amal qilishi

bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos funktsiyalarida faol namoyon bo'ladi.

Narx funktsiyalari - bu iqtisodiy kategoriya sifatida mohiyatini va tarkibining tashqi namoyon bo'lishini haqiqatda anglash shakllari. Narx axborot tashuvchisi vazifasini bajaradi va milliy iqtisodiyotni boshqarish tizimida alohida o'rin tutadi, barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarni pul bilan ifodalashda tahlil qilish, bashorat qilish va rejalashtirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Narx funktsiyalari har xil turdagi tovarlarni (ishlarni va xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish uchun ijtimoiy zaruriy mehnat xarajatlarini, ularning iste'mol xususiyatlarini aks ettiradi va shu bilan birga talab qilinadigan tovar va xizmatlarning talab va taklifini tartibga soladi. Chunki bozor raqobati sharoitida iste'molchilar xususiyatlari va mahsulot sifati jamiyat ehtiyojlarini qondirish va iqtisodiy jihatdan maqbul narxlash mexanizmi orqali narxlar resurslar va kapitalni qayta taqsimlashning iqtisodiy jarayonlariga hamda boshqa iqtisodiy toifalar bilan o'zaro ta'sirida (moliya-kredit sohasi, pul muomalasi, inflyatsiya, soliqqa tortish, ish haqi, xarajatlar, foyda, ishlab chiqarish rentabelligi) muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qiladi.

Demak, narxlar: hisobga olish va o'lchash; tartibga solish (talab va taklifni muvozanatlash); tarqatish (qayta taqsimlash); ishlab chiqarishning oqilona joylashishiga hissa qo'shish; rag'batlantiruvchi va ijtimoiy masalalar kabi asosiy funktsiyalarni bajaradi.

Bozorlarsiz, oldi-sottisiz baho haqida gapirilmaydi, baho (narx)ni faqat bozor belgilashga qodir. Tovar bahosi - bu xaridor ma'lum iste'mol sifatiga ega bo'lgan tovarga to'lashga tayyor bo'lgan pul miqdori. Bahoni belgilashga bunday yondashuv anchagina universal va maqbuldir.

Narxlar xalq xo'jaligi tarmoqlarining oziq-ovqat bozorlarini to'ldirish orasida ustuvor va samarali ishlab chiqarishni rivojlantirish hisobiga almashuv ekvivalentligini ta'minlashini talab qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari o'rnini to'ldirish ham, daromad ham (mahsulot) narxga bog'liq. Baholarning yuzaga kelgan darajasi qishloq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlarida ishlab chiqarish rentabelligining past darajasini asoslaydi.

Bozor sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yuqori samaradorligi faqat baho va baholarni shakllantirishning iqtisodiy asoslangan tizimi mavjud bo'lgandagina mumkin, chunki baholar nafaqat bozor muvozanatiga, balki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va har bir tovar ishlab chiqaruvchining iqtisodiy imkoniyatlari

muvozanatiga ham bog'liq.

Narxni shakllantirish mexanizmi o'z navbatida quyidagilarni rag'batlantirishi mumkin:

- ilmiy-texnik taraqqiyot (yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy energiya manbalaridan foydalanish, yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish va boshqalar);
- resurs xarajatlarini tejash;
- mahsulot sifatini, tovarlarning assortimentini va ularning foydaliligini yaxshilash;
- ishlab chiqarish va iste'mol tarkibidagi o'zgarishlar.

Rag'batlantirish - narxlar, ustama to'lovlar va asosiy narxga chegirmalardagi foyda darajasi oshishi orqali ta'minlanadi.

Bunday holatda sohada mahsulot yetishtiruvchilar zarar ko'rishadi, chunki aynan hosil mavsumida narxlarni pasayishi ularni daromadiga salbiy ta'sir qiladi va buni yumshatish uchun qator shart-sharoitlar bo'lishi talab qilinadi. Xususan, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari, agroklastarlarni rivojlantirish mahsulot yetishtirish jarayonlariga xizmat qiluvchi infrazuzilmani yanada rivojlantirish, undagi sub'yektlar faoliyati barqarorligini ta'minlash kabilar shular jumlasidandir.

Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish jarayonidagi mavsumiy o'zgarishlar mahsulotni saqlash va qayta ishlash uchun talab qilinadigan sharoit mavjudligi, yil davomida hosil olish davomiyligi va soniga bog'liq holda turli oraliqda o'zgaradi. Amaliy jihatdan olib qaraganda, mahsulotlar hajmidagi mavsumiy o'zgarishlarni aniqlash va ularni tahlil qilish ancha murakkab jarayon hisoblanadi, biroq ularni to'g'ridan-to'g'ri narxga ta'sirini inobatga olgan holda narxdagi o'zgarishlar asosida tadqiq qilish zarur.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi mavsumiy tebranishlarning katta-kichikligi ushbu jarayon taraqqiyotini ifodalovchi asosiy indikatorlardan biri sifatida maydonga chiqadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda maqolada alohida mahsulot yetishtirishdagi o'zgarishlarni narx tebranishlari asosida tahlil qilish, ularni jarayon rivojiga ta'sirini aniqlash, mavsumiy va mavsumiy bo'lmagan (biznes) sikllar o'rtasida bog'liqlikni baholab o'tamiz.

Ko'rsatkichlarni bir-biri bilan solishtirish uchun ularning masshtab samarasini bartaraf etish va standart ko'rsatkichlarga keltirish talab qilinadi. Buning uchun biz variatsion kenglikni standart chetlanishga nisbati sifatida aniqlanadigan koeffitsiyentni mavsumiy o'zgarishlarni baholashga xizmat qiluvchi standart ko'rsatkich sifatida keltirib o'tmoqchimiz.

$$k_t = \frac{P_{tmax}^i - P_{tmin}^i}{\sigma_t^i} \quad (1)$$

Bu yerda: k_t - i-mahsulotning t-yil uchun aniqlangan koeffitsiyenti; P_{tmax}^i - i-mahsulotning t-yildagi maksimal narxi; P_{tmin}^i - i-mahsulotning t-yildagi minimal narxi; σ_t^i - i-mahsulotning t-yildagi narxlarining standart chetlanishi;

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil uchun mahsulotlar kesimidagi narxlar Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida qarab chiqilgan. Tahlil uchun jami 15 turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlari tanlab olingan va tahlil 2019-2023 yillarda narxlardagi o'zgarishlar asosida amalga oshiriladi. Umumiy xulosaga ega bo'lish maqsadida mahsulotlar xususiyatlari hamda aholi iste'molidagi ahamiyati inobatga olingan holda 8 ta guruhga jamalandi va ularning o'rtacha narxlari shakllantirildi. Bular: guruch, kartoshka, sabzavot, poliz, meva, go'sht, sut, tuxum.

Barcha tahlillar haqiqiy ko'rsatkichlar asosida amalga oshirilgan bo'lib, ularni aniqlashda 2019 yil bazis yil sifatida qabul qilingan.

Dastavval tahlil qilinayotgan davr mobaynida mahsulotlar narxlarini umumiy o'zgarishi qarab chiqiladi va bu yillar mobaynida qaysi mahsulot narxi yuqori o'sish darajasiga ega bo'lganligini aniqlashga imkon beradi. Ushbu tahlil 2022 yilda narxlarning haqiqiy qiymati 2006 yilga nisbatan necha barobarga oshganligi va yillik o'rtacha o'sish darajasi kabi ko'rsatkichlarni qiyosiy tahlilini amalga oshirish imkonini beradi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Mahsulot yetishtirish hajmidagi o'zgarishlarni narx o'zgarishlari asosidagi tahlili (2019-2023 yillar)

	2019 YILDAGI MAHSULOT NARXI (KG/SO'M)	2023 YILDAGI MAHSULOT NARXI (KG/SO'M)	2019 YILGA NISBATAN NARXLARNING O'ZGARISHI (MARTA)	O'RTACHA YILLIK O'SISH DARAJASI (%)
Guruch	8866	19884	2,24	20,19
Kartoshka	2398	4046	1,69	13,08
Sabzavotlar:				
Sabzi	2060	1846	0,9	-2,74
Piyoz	3902	4327	1,11	2,58
Karam	2331	3669	1,57	11,34
Bodring	6974	12889	1,85	15,35
Pomidor	7602	13452	1,77	14,27
Poliz:				
Tarvuz	2075	3829	1,85	15,32
Qovun	2779	4839	1,74	13,87
Meva:				
Olma	5560	11509	2,07	18,19
Nok	13888	29026	2,09	18,43
Uzum	8386	18735	2,23	20,1
Go'sht	38368	71101	1,85	15,42
Sut (yangi sog'ilgan)	3505	6510	1,86	15,48
Tuxum (10 dona)	6123	13042	2,13	18,9

Asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari narxlaridagi mavsumiy o'zgarishlarni solishtirish

	2019 YIL				2023 YIL			
	Maksimal narx $P_{t \max}$	Minimal narx $P_{t \min}$	Standart chetlanish (σ_t)	Maks. va min. narx farqini standart chetlanishiga nisbati (k_t)	Maksimal narx $P_{t \max}$	Minimal narx $P_{t \min}$	Standart chetlanish (σ_t)	Maks. va min. narx farqini standart chetlanishiga nisbati (k_t)
Guruch	9450	8565	300	2,95	21814	16536	1571	3,36
Kartoshka	2789	1804	280	3,51	4713	3381	393	3,38
Sabzavot								
Sabzi	2855	1462	387	3,6	6231	2521	1200	3,09
Piyoz	2635	1090	510	3,02	7915	2795	1728	2,96
Karam	2767	2022	250	2,98	5437	2969	798	3,09
Bodring	14523	1642	4885	2,64	25812	2861	9013	2,55
Pomidor	14833	2264	4431	2,84	27728	3085	9585	2,57
Poliz								
Tarvuz	3335	1715	421	3,84	6000	2346	1306	2,8
Qovun	5383	2014	838	4,02	7321	3372	1350	2,92
Meva								
Olma	8295	4205	1164	3,51	12616	9989	698	3,76
Nok	21500	10095	2773	4,11	32011	25825	1878	3,29
Uzum	14125	4207	3278	3,03	28547	11841	5005	3,34
Go'sht	44113	33862	3757	2,73	73047	68087	1854	2,67
Sut	4250	3254	306	3,25	6812	5799	287	3,53
Tuxum	8452	5165	1076	3,05	15307	10278	1685	2,98

Natijalarni ko'rsatishicha yuqori yillik o'rtacha o'sish darjasi guruch va uzum mahsulotlariga to'g'ri keladi va 20 foizni tashkil qiladi. Eng past o'sish esa sabzavot mahsulotlari narxlarida kuzatilgan bo'lib, jumladan piyozning haqiqiy narxi mos ravishda 1,1 barobarga oshganligini, sabzining

narxi esa 10 foizga pasayganligini kuzatish mumkin. Qolgan barcha qishloq xo'jalik mahsulotlarining haqiqiy narxi tahlil qilinayotgan davr mobaynida deyarli 1,5 va 2 barobardan ortiqroq oshgan.

Mahsulotlar haqiqiy narxidagi o'sishni yuqoriligi

qolayotganligi ularni yetishtirish jarayonlarini rivojlantirish va hajmini oshirish masalasini dolzarbligini asoslaydi.

Narxlarining mavsumiy o'zgarishlarini tahlil qilish uchun qator mutloq va nisbiy ko'rsatkichlardan foydalanildi. Xususan, narxlardagi mavsumiy o'zgarishlarni aniqlash uchun belgilangan yildagi eng katta va eng kichik narxlar farqi ya'ni, har bir yil uchun mahsulot narxining variatsion kengligi aniqlandi. Biroq, ushbu ko'rsatkichlar mavsumiy narx o'zgarishlarini mahsulotlar va yillar kesimida tahlil qilish uchun yetarli emas, bundan tashqari aniq va to'liq xulosa chiqarish imkoniyatini bermaydi.

Keltirilgan 8 turdagi mahsulotlar guruhi bo'yicha 2019 hamda 2023 yillar uchun mazkur koeffitsiyent aniqlagan holda ular narxidagi mavsumiy o'zgarishni oshgan yoki kamayganligi qarab chiqiladi (2-jadvalga qarang).

Piyoz, go'sht, tuxum, bodring mahsulotlari narxi bo'yicha aniqlangan koeffitsiyent 2019 yildagiga nisbatan 2023 yilda deyarli o'zgarmagan, ya'ni -0,06 dan -0,09 gacha o'zgargan. Kartoshka, pomidor, sabzi mahsulotlari narxi bo'yicha aniqlangan koeffitsiyent 2019 yildagiga nisbatan 2023 yilda - 0,13 dan - 0,51 gacha o'zgargan. Yuqoridagi mahsulotlar narxidagi mavsumiy o'zgarishni ozroq pasayganligini ko'rsatadi.

Nok, tarvuz, qovun mahsulotlari narxi bo'yicha - 0,82 dan - 1,1 gacha o'zgargan. Bu mahsulotlar narxidagi mavsumiy o'zgarishni ozroq pasayganligini, ulardagi mavsumiy tebranishlarni ancha barqarorlashganligini, ya'ni ushbu mahsulotlarni yetishtirish jarayonlarida rivojlanish mavjudligi ko'rsatadi.

Karam narxida bu koeffitsiyent 2019 yildagiga nisbatan 2023 yilda +0,11ga o'zgargan, ya'ni mavsumiy tebranishlarda qisman beqarorlashgan.

Sut (+0,28), Uzum (+0,31), Guruch (+0,41) mahsulotlari narxlarining mavsumiy tebranishlarida sezilarli beqarorlashgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tovar ishlab chiqaruvchi uchun realizatsiya (sotish) baholari daromad olishga va takror ishlab chiqarishga imkon berishi muhim. Biroq, hozir qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqatlarning ko'plab turiga hamma vaqt ham rentabellikning zarur darajasini ta'minlayvermaydigan, ko'pincha, ayniqsa, chorvachilikda sarflangan mehnatga haq to'lash va moddiy xarajatlarni to'ldirish imkonini bermaydigan narxlar amalda bo'ladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ishlab chiqarish vositalariga taqqoslanganda, o'ta nomutanosib baholar yuzaga keladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, karam, sut, uzum, guruch mahsulotlarini yetishtirish jarayonlarini rivojlantirish,

ulardagi barqarorlikni ta'minlash lozim chunki, aholi soni va real daromadlarini oshirish aynan ushbu mahsulotlarga bo'lgan talabni oshiradi. Natijada barqarorlikni ta'minlash uchun mahsulot yetishtirish hajmini ham mos ravishda oshirish talab qilinadi.

Shuning uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari bahosini tartibga solishda davlatning roli ortishi kerak.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Kenjayev Toshbolta Aminovich, Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi / Кенжаев Тошболта Аминович, независимый исследователь Института предпринимательства и педагогики Денова / Kenjaev Toshbolta Aminovich, independent researcher at the Institute of Entrepreneurship and Pedagogy Denova

► kenjayevtoshbolta@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0003-3315-5017>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Guan Zhengfei. Econometric analysis of agricultural production: New primal perspectives. Integrating Agronomic Principles. American Journal of Agricultural Economics 88 (2006), in press. <https://edepot.wur.nl/121734>
- [2]. Xatamov O.Q., Kenjayev T.A., Raqamlashtirish – qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish omili sifatida. "Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari. №4(12) 2023yil. <http://dgeconomy.tsue.uz/>
- [3]. Saydaxmedov O.A. Agrar sohani boshqarishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Toshkent-2012.12 bet.
- [4]. R.X. Ergashev. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. Toshkent: EXTREMUM PRESS". 2011,416 bet.
- [5]. A. Abdug'aniev, A.A. Abdug'aniev. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. - T.: TDIU, 2011.
- [6]. X.S.Muhiddinov,O.Q.Xatamov,A.N.Rahimov. Yekonometrika asoslari. O'quv qo'llanma. Qarshi: Intelektl nashriyoti 2021.-287
- [7]. Ataev, J. (2017). Interpretation of seasonal fluctuation of prices by means of Fourier series in the regional market agricultural products. Bulletin of Science and Practice, (2), 225–230. Available at: <http://www.bulletennauki.com/ataev>, accessed 15.02.2017.